

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sultan hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sultan romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G.Axmadaliev	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirkasida nuring poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalaniishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'liming mohiyati, tuzilmasi va vazifikasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limiini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870
G.Shodieva	



**XALQ DOSTONLARIDA DO'STLIK OBRAZI TALQINI
ТОЛКОВАНИЕ ОБРАЗА ДРУЖБЫ В НАРОДНЫХ БЫЛИНАХ
INTERPRETATION OF THE IMAGE OF FRIENDSHIP IN FOLK EPICS**

Komilova Saida Farxodjon qizi
Farg'onan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalqining o'tmishini, uning o'ziga xosligini tarannum etuvchi ikki doston ya'nii "Alpomish" va "Kuntug'mish" dostoni tahlili orqali hayotning qiyinchiliklari vaziyatlarida yaqin do'stligarning yordam berishi afzalliliklari va nomard insonlar bilan do'st bo'lish oqibatlari haqida so'z yuritilgan.

Abstrac

This article discusses the advantages of helping close friends in life's difficult situations and the consequences of being friends with nomadic people through the analysis of two epics, The Epic "Alpomish" and the epic "Kuntug'mish", which glorify the past of the Uzbek people, its uniqueness.

Аннотация

В этой статье рассматриваются преимущества помощи близких друзей в трудных жизненных ситуациях и последствия дружбы с кочевниками посредством анализа двух эпосов, воспевающих прошлое узбекского народа, его самобытность, а именно "Алломиши" и "Кунтугумиши".

Kalit so'zlar: Do'stlik, motiv, xalq dostonlari, xalq og'zaki ijodi, Alpomish, Qorajon, Kuntug'mish, Azbarxoja, tugun, sujet liniyasi.

Key words: Friendship, motive, folk epics, folklore, Alpomish, Karajan, Kuntug'mish, Azbarkhoja, node, plot line.

Ключевые слова: Дружба, мотив, народный эпос, фольклор, Алломиши, Карайян, Кунтугумиши, Азбарходжа, узел, сюжетная линия.

KIRISH

Do'stlik ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad va ideallar mushtarakligini anglash asosida shakllantiladi. Inson paydo bo'lishi bilan uning jon-qoniga barcha ezgu amallar va fazilatlar bilan birgalikda do'stlik kabi muqaddas tuyg'u ham beriladi. Bu tuyg'u ilohiy tuyg'udir. Inson yashashi davomida albatta do'stlikka suyanadi, undan yordam oladi. Do'stlik va uning afzalligi haqida Yusuf Xos Hojibning quyidagi baytini misol qilib keltirishimiz mumkin:

"Qarindosh va do'star bo'lib yursa soz,

Butun qavm uchun qolg'ay ibrat bo'lib.

Yoving bir esa, mingga teng yovligi,

Esa mingta do'st, birga teng ozligi" [1.52]

Do'stning mavjudligi hayot davomida muhim bo'lganidek, xalq og'zaki asarlarda ham bu motivning o'mni beqiyosdir. Buning isbotini xalq ijodi namunalari orqali ko'rib chiqishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Eposlarda yoritilgan do'stlik obrazlari bir-biriga qardosh bo'lmagan qahramonlardir. Ular turli vaziyatlarda ham ma'nani, ham jismonan bir-birlariga yordam qo'llini uzatishadi va turli qiyinchiliklarni do'stlik yordamida bartaraf etishadi, hattoki bu yo'lida bir-birlari uchun jon berishga ham tayyor bo'lishadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining o'chmas durdonalaridan biri hisoblangan "Alpomish" dostonida ham do'stlik motivi bosh qahramon hayotini ijobjiy tomonga o'zgartiradi. Dostonda keltirilgan Qorajon obrazi Alpomish taqdirining kutilmagan o'zgarishlariga sababchi bo'ladi. Bu ikki qahramon

bir-biriga o'shamagan ikki olamdir. Ammo ularni birlashtirib turuvchi bir yaqinlik bor. U ularning sof ko'nglidir.

Qorajon bir kuni uyqudan iymon kalimasini aytgan xolatda uyg'onadi. Bu voqeadan keyin u Alpomishni uchratadi va u bilan do'st bo'ladi va uni uyiga olib keladi. "Alpomishni mehmonga olib kelgan Qorajon bu holdan g'azab otiga mingan onasi Surxayil kampirga qarata deydi:

To o'lguncha yaratganga rost bo'ldim,
O'z fe'llimdan cho'p-u xasdan past bo'ldim,
Xudoni o'rtaqa solib do'st bo'ldim". [2.153]

Ular shu tariqa do'stlashadilar. Asardav voqealar rivoji mobaynida bu ikki do'st bir-biriga ko'p yordam beradi, ularga qilingan turli yomonliklarni, qora kunlarni birgalikda yengib o'tadilar. Asar voqealarining birida Alpomish dushmanlari tominidan aldanib, zindonbabd qilinadi. Uni bu yerdan qadrdon do'sti Qorajon ozod qiladi.

"Zindonda yotib, Alpomish Qorajonni ko'rdi. Qorajon ekanini bilmadi. To'qson bot mon temirdan sovut kiygan, zindonning boshida qarag'ayday buldurab ko'rindi. "Bu Qalmoqshohning xabar olib yurgan jousularida, Alpomishning juda ko'ngli cho'kib ketgan ekan, demasin", deb Qorajonga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

"Zindonchilar, mendan xabar olasan,
So'zimni shohingga aytib borasan,
Men Alpomish, nazarkarda botirman,
Botirlikda bu zindonda yotirman..."

Bu so'zni eshitib, Qorajonning ko'ngli buzilib, ko'zdan yoshi tizilib, jigarbag'ri ezilib, "Do'stim mardda, hali ham ko'ngli cho'gargan yo'q ekan", deb o'zini bildirib, bir so'z aytib turgan ekan:

"G'amli qullar ohu voyda,
Bu yerlarda jonsiz qayda,
Xudoni o'rtaqa solgan,
Shu tepada do'st bo'p qolgan" [3.242]

Asar davomida bu ikki qahramon bir-biriga ko'p yordam berdi va qiyomatli do'st bo'lib qolishdi.

Hayotda shunday odamlar ham borki, ular ahdlariga vafo qilmaydilar, atrofdagilarini aldab, o'z manfaati yo'lida, qasam ichib, do'stlashgan insonlariga ham xiyonat qilishadi. Bunday toifadagi insonlar haqida Shvetsariya faylasufi va yozuvchisi Jan-Jak Russo quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Qalbaki odamlarning dushmanligidan ko'ra ularning do'stligi xavfliroqdir" [4.42]. Bunga o'xshash obrazlarni xalq dostonlarida ham uchratishimiz mumkin. Misol tariqasida, "Kuntug'mish" dostonidagi Azbarxo'ja obrazi va u orqali ro'y bergan hodisalarni tahlil qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu dostonda Kuntug'mish va Xolbeka podshoh g'azabiga duchor bo'lleshadi va sahroga surgun qilinadi. U yerdan omon qolgandan so'ng ikki farzandi bilan tog'ga kelib, yashirinib, u yerda jon saqlashadi. Har kuni Kuntug'mish el daragini topish maqsadida tog' tepaliklariga chiqib, hech qanday natijasiz qaytadi va to'raning shu atrofda chiqmagan hech bir cho'qqisi qolmaydi. Faqat bir tepalikka chiqay deb, har safar Xolbeka yolg'iz qolmasligi uchun ortiga qaytib ketgan bo'ladi. Farzandlari uch yoshga to'lgandan keyin ularni tog'da qoldirib, o'sha cho'qqi tomon yo'l oladi. U yo'lida Azbarxo'ja ismli Xudodan qaytgan bir karvonboshiga duch keladi. U Kuntug'mishning xolatini ko'rib, bir shart evaziga non va suv berishini aytadi. Bu shart esa ajdarholi o'ldirish edi va Kuntug'mish bu shartni bajaradi. Uning mard va jasur ekanligini ko'rgan karvonboshi unga do'stlik taklifini bildiradi. Asarda ushbu voqealar shunday tasvirlanadi:

"...Sening shu qilgan ishingni olamning boricha ta'rif qilsak ham tamom bo'lmaydi. Agarda avvalda sening shunday ekaningni bilsak edi, izingni ko'zlarga surma, o'zingni boshimizga toj qilmasmidik. E qalandar, burungilar aytibdi: "Aytmasang, kim biladi, ochmasang, kim ko'radi". Odamlar rasmi do'stlikka muhabbat qo'yib jo'ra bo'ladi. Do'st otini hurmat qilib, bir-biridan qayta olmaydi. Men Kalamullohni ko'kragimga qo'yib, o'ttiz pora Qur'oni o'ttiz marta o'rtaqa solib, sening bilan do'st bo'laman. Bir ismi do'stlikdan mardum qaytolmasa, Kalamullohdan musulmon kishi qanday qaytadi, – deb o'ttiz safar quchoqlashib do'st bo'ldi" [5.62] Shunday xolatda ular do'stlik qasamini ichioshadi. Lekin, Azbarxo'ja Xolbekaning jamolini ko'rib, umi podshohga topshirmoqchi

ADABIYOTSHUNOSLIK

bo'lib, ichgan qasamidan kechib, do'stiga xiyonat qilib, uning bir o'zini yolg'iz sahroda bigizga o'rتاب qoldirib, Xolbekani esa farzandlaridan ayirib o'zi bilan birga olib ketadi.

Mana shu hodisa tufayli sujet liniyasida tugun hosil bo'ladi. "Tugun –sujetning ikkinchi tarkibiy qismi. U konfliktning ilk ro'yobga chiqishi va sujetning rivojlana boshlashiga turki berilishidir"[6.155].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz joizki, hayotda haqiqiy do'stlarni qadrlab, hamisha ular bilan yaxshi munosabatda bo'lish kerakligi xalq dostonlari orqali ochib berilgan. Kaykovus "Qobusnoma" asarida aytganidek: "...xoh do'stlig' bo'lsin va xoh dushmalig' bo'lsin, barcha ishni andozada e'tidol (o'rta darajada) bila qilg'il, nedinkim e'tiqod aqlning bir juz'idir. Yuqoridagi fikrlar orqali do'stlik obrazining xalq dostonlarida tarannum etilishi ochib berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hikmatlar xazinasi – Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1977
2. Alpomish: xalq og'zaki ijodi – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. -153 b.
3. Alpomish: Toshkent: "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, 2010. -242 b.
4. Tafakkur gulshani –Toshkent: "G'afur G'ulom", 1989. – 42 b
5. Kuntug'mish: xalq og'zaki ijodi – Toshkent: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1975. - 62 b.
6. Adabiyot nazariyasi, Izzat Sulton –Toshkent : "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. -155 b.